

YORDAMGA MUHTOJ BO'LGAN BOLALARNI TA'LIM TIZIMIGA JALB
ETISHGA OTA-ONALAR , OILA VA JAMOATCHILIK BILAN ISHLASH.

Jizzax Davlat Pedagogika

Universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 611-

23-guruh 2 -bosquch talabasi Omonova Gulshan

ilmiy rahbar **DJo'rayeva Sohiba .**

Anotatasiya: bu maqola maktab ta'lism tizimida joriy etilayotgan inklyuziv ta'limga yani imkoniyati cheklangan bolalarni , sog'lom bolalar bilan teng huquqda ta'lism olishga jalg qilish, hamda inklyuziv ta'lism haqidagi imkoniyatlarni keng ommaga chuqurroq targ'ib qilish borasida mulohaza yuritiladi.Ota -onalarga bu ta'lism sohasi haqida chuqurroq ma'lumot yetkazib berish ,hamda ularni bunga targ'ib qilgan holda , ta'limga jalg etish borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lism, ,imkoniyati cheklangan,uy ta'limi,ilmiy qarashlar ,tarbiyachi,maxsus tyutor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar borligi haqida o'ylab, fikr yuritsak, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo'lamiz. Ushbu tashabbus mazmun-mohiyati haqida targ'ibot ishlarini izchil yo'lga qo'yish, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish masalalarida parlament nazoratini kuchaytirish dolzarb vazifalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lism-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi qaroriga asosan O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik

Respublika tashxis markazi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha Hukumat qarorini qabul qilish belgilangan.

Qarorda xalq ta’limi tizimida kasb-hunarga yo‘naltirish, ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish mexanizmini yanada takomillashtirish, hunarga yo‘naltirishning ilg‘or tajribalarga asoslangan zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish, inklyuziv ta’limni joriy etish, rivojlantirish hamda bolalar, ota-onalar, pedagog kadrlar va jamoatchilikni ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash orqali bolalar uchun xavfsiz inklyuziv o‘quv muhitini yaratish ko‘zda tutilgan. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish katta va ko‘plab omillarga bog‘liq.

Inklyuziv ta’lim sohasi hozirda jamiyatimizda keng ko’lamda qo'lalanayotgan ta’lim tizimining bir ko'rinishi hisoblanadi , bu ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom bolalar bilan birga o'qitish hisoblanadi.Hozirda bu ta’lim haqida ozchilik ota - onalar xabardor hisoblanadi. Hozirgi rivojlangan ijtimoiy davrda barcha teng huquqli ta’lim olishga haqli hisoblanadi , shuning uchun ham mamlakatimizda inklyuziv ta’lim , zamonaviy jihozlangan va talab darajaga javob beradigan maktablarda tashkil etilmoqda.Bu ta’lim sohasi bolalarga nima bera oladi? Bu savolga men quyidagicha javob beraman .Hayoti davomida orttirilgan yoki tug'ma tarafdan imkoniyati qandaydir sabablarga ko'ra cheklangan bolalarni uy ta’limidan tashqari , maktab hududiga olib kelgan holda sog'lom bolalar bilan birligida ta’lim olishga ularni jalb qilishdan iborat hisoblanadi. Bu ta’lim sohasi Yaponiya davlati bilan hamjihatlikda bizning yurtimizga kirib kelgan hisoblanib , bu jarayon bolalarda ijobiy o'zgarishlarga olib kelganini ko'ryapmiz.Agar sizda ham bu ta’lim sohasiga qiziqish uyg'onsa va farzandingizni shu ta’lim jarayoniga jalb qilmoqchi bo'lsangiz , o'zingizga yaqin bo'lgan , zamonaviy ta’lab darajalariga javob bera oladigan maktabga , maktab direktori bilan kelishgan holda faoliyat olib borishingiz mumkin hisoblanadi.

Nega jamiyatda barcha shaxs teng huquqli deymiz lekin imkoniyati cheklangan bolalar uchun bor sharoitlardan foydalanmaymiz ,axir ular ham barcha shaxslar kabi teng huquqli-ku . Inklyuziv ta’lim esa bunday noroziliklarga chek qo'yan holda

imkoniyati cheklangan bolalar ta'limini , sog'lom bolalar bilan birgalikda olib borishni yo'lga qo'ydi.

Bu ta'limda bolalar bir sinfda bir nuqsonli bolalar soni uchtagacha bo'lishi mumkin , umumiy sinflar ichida esa soni oltitadan oshmasligi zarurdir. Agar maktabda bu ta'llim joriy etilmagan ,ammo oltitaga yaqin bir nuqsonli va inklyuziv ta'llimga muhtoj bolalar o'z ixtiyoriga ko'ra bu ta'limda o'qishga istak bildirsa ,o'sha hududga yaqin mакtab hududida , mакtab direktori bilan kelishgan holda ,mакtab ular uchun sharoit yaratib berishga majbur hisoblanadi. Shuning uchun sizda ham bu ta'lim sohasiga ehtiyoj sezilsa , mакtab hodimlari bilan she'riklikda buni yo'lga qo'yib ,farzandingiz rivojlanishida ijobiy o'sishlarga erishishingiz mumkin hisoblanadi.

Qachonki jamiyatda teng huquqli ta'lim keng ko'lamda rivojlansa , bu davlatda rivojlanish jadal darajada bo'ladi , siz o'z ehtiyojlarimizni to'g'ri mulohaza qilib , o'z farzandingiz uchun shart -sharoitlar yaratib uning , sog'lom bolalar bilan birga o'qishini ta'minlagan holda ,uning ham ijtimoiy muhitga nisbatan moslashishini ta'minlab bergen holda , ularga ham yo'l oching va o'z imkoniyatlaringizdan keng ko'lamda foydalaning.

Foydalanilgan adabiyotlar.

"Maxsus pedagogika" 2014-yil Toshkent P.M.Po'latova

"Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va inklyuziv ta'lim" 2023-yil Namangan R.R.Zamilova.

"Maxsus va inklyuziv ta'lim " 2021-yil Toshkent